



№ 31

«14» fevral 2025 y.

**«Hududgazta`minot» AJning 2021 yil 04 oktyabrdagi 294-sonli buyrug'iga
o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

«Hududgazta`minot» AJning 2021 yil 4 oktyabrdagi 294-sonli buyrug'iga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish hamda davlat xaridlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish, shuningdek moddiy-texnik resurslar, ishlar va xizmatlar uchun amalga oshiriladigan marketing tahlillari samaradorligini oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. «Hududgazta`minot» AJning 2021 yil 4 oktyabrdagi 294 - sonli «Hududgazta`minot» aksiyadorlik jamiyatida tovarlar, ishlar va xizmatlar davlat xaridlarini amalga oshirishda xaridlar shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi buyrug'ining quyidagi ilovalari:

«Hududgazta`minot» AJning 2021 yil 4 oktyabrdagi 294-sonli buyrug'ining 3-ilovasidagi Ekspert-texnik komissiyasi tarkibi mazkur buyruq ilovasi bo'yicha shakllantirilgan ilovaga muvofiq;

«Hududgazta`minot» AJning 2021 yil 4 oktyabrdagi 294-sonli buyrug'ining 5-ilovasidagi Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazadigan xarid komessiyasi tarkibi mazkur buyruq ilovasi bo'yicha shakllantirilgan ilovaga muvofiq;

«Hududgazta`minot» AJning 2021 yil 4 oktyabrdagi 294-sonli buyrug'ining 7-ilovasidagi Tender o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi tarkibi mazkur buyruq ilovasi bo'yicha shakllantirilgan ilovaga muvofiq o'zgartirilsin.

2. «Hududgazta`minot» AJning 2024 yil 15 maydagi № 96-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Devonxona (Botirjonova) ushbu buyruqni Jamiyatning boshqarma va bo'limlari hamda quyi tizim korxonalar va tashkilotlariga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazorat boshqaruv raisining yo'nalishlar bo'yicha o'rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi

ASLIGA TO'G'RI

M. Xodjayev